

M.A.Xudoynazarova

“TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi

U.M.Maxmudov

“TIQXMMI” MTU ning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti o‘qituvchisi

TURIZM VA REKREATSIYANING TARIXI

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm va rekreatsiya tushunchalarining dastlabki belgilari qachon paydo bo‘lgan, uning rivojlanish tarixi qanday bo‘lgan, qaysi mamlakatlarda dastlabki ko‘rinishlari namoyon bo‘lganligi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Turizm, rekreatsiya, sayohat, tarix, iqtisodiyot tarmoqlari, dam olish.

Abstract: This article provides information on when the first signs of the concepts of tourism and recreation appeared, what was the history of its development, and in which countries the first manifestations appeared.

Key words: Tourism, recreation, travel, history, economic sectors, recreation.

Абстрактный: В данной статье представлена информация о том, когда появились первые признаки понятия туризма и отдыха, какова была история его развития и в каких странах появились первые проявления.

Ключевые слова: Туризм, рекреация, путешествия, история, отрасли экономики, рекреация.

XXI asr jamiyat taraqqiyotining eng yuqori nuqtasi deb ta’kidlasak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Ushbu davrda ilm-fan, ta’lim, texnika, sanoat, sport, umuman, deyarli barcha sohalar gullab yashnayapdi. Shular qatorida turizm ham. Bugungi kunda jahonda “turizm” va rekreatsiya” eng ommalashgan terminlardan hisoblanadi. Chunki rekreatsiya va turizm inson hayotida nafaqat yaxshi daromad manbai balki jismoniy va ruhiy dam olishni ta’minlab beruvchi soha hamdir. Har bir narsa, voqea yoki hodisaning ibtidosi mavjud bo‘ladi. Shu sababli biz dastlab turizm va rekreatsiyaning kelib chiqish tarixiga e’tibor qaratsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Turizm o‘ziga xos faoliyat shakli sifatida nisbatan yaqinda paydo bo‘lgan, lekin uning ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi Turizmning dastlabki ko‘rinishlari sayohat sifatida qadimdan shakllanib kelgan. Hozirgi kunda sayohat va turizm bir-biriga yaqin, ammo boshqa-boshqa tushunchalar hisoblansada, sayohat turizmning ilk ko‘rinishi sanaladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da sayohat so‘ziga shunday ta’rif berilgan: “Sayohat – arabcha so‘z bo‘lib, dam olish, hordiq chiqarish yoki dunyoni ko‘rish, o‘rganish maqsadida qilingan safardir”. Dastlabki sayohatlar qadimgi davrda qabilalarning ko‘chib yurishi bilan tavsiflanadi. Tarixga nazar solib shuni aytish mumkinki, sayohatchilar deyilganda ko‘z oldimizda dastlab bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurgan ko‘chmanchi qabilalar, diniy e’tiqoddagi ziyoratchilar, dunyo bo‘ylab safarga chiqqan savdogarlar, davlat elchilari, ilmiy maqsadda dunyo kezib yurgan olimlar, allomalar va harbiy maqsadda bir yurt dan o‘zga yurtlarga borgan jangchilar gavdalanadi. Ular o‘zlari borgan hududlarning geografiyasi, xalqi, millatining urf-odatlarini, an’ana va marosimlarini, dini bilan tanishgan hamda ko‘plab ma’lumotlar yozib qoldirishgan.

Turizmning paydo bo'lishining dastlabki bosqichi juda qadimga borib taqaladi. Tarixda insonlar dunyoni kashf qilish va savdo, diplomatik, harbiy, diniy va boshqa maqsadlar bilan yangi hududlarga safarga chiqishgan hamda bu turizmning dastlabki ko'rinishi ekanligini yuqorida ta'kidladik. Demak, qadimda sayohat qilishga asosiy sabab savdo, ta'lim, ziyorat, davolanish, harbiy yurishlar, yangi hududlarni kashf qilishga intilishlar bo'lgan. Sportga bog'liq sayohatlar (Olimpiya o'yinlari) ham Qadimgi Yunonistonda mavjud bo'lgan.

Sharqda qadimda tuyalar vositasida karvonlarda sayohat qilishgan. Ular safar davomida karvon saroylarda to'xtab dam olishgan. Karvon saroylarda hatto sayohatchilarning hayvonlari uchun ham sharoit yaratilgan. Savdo faol bo'lganligi sababli ham qadimda sharqda xizmat ko'rsatish darajasi Yevropaga nisbatan yaxshiroq bo'lgan.

Qadim zamonlarda O'rta Yer dengizi atrofida yashagan xalqlar o'z sayohatlari bilan mashhur bo'lgan. Ayniqsa finikiyaliklar, yunonlar, arablar sayohatlarida to'plangan ma'lumotlar ahamiyatga ega.

Yangi hududlarni kashf etish uchun safarga chiqqan Qadimgi Yunon faylasuflari o'z safarlari davomida ko'plab joylar, xalqlar haqida ma'lumotlar to'plab yozib qoldirishgan. Ularning safarlari turizm va sayohatning boshlanishining dastlabki ko'rinishiga yorqin misol bo'la oladi.

Ta'kidlash lozimki, dastlabki sport sayohatlari Qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. Yunonistonda qadimda har yili Olimpiya o'yinlari tashkillashtirilgan. Ushbu hududda har yili minglab sportchilar, sport va san'at ixlosmandlari yig'ilishgan. Sport musobaqasiga nafaqat Elladadan, balki O'rta Yer dengizining boshqa davlatlaridan ham kelishgan. Natijada o'z-o'zidan mehmonxona, ta'maddixon va transportga ehtiyoj paydo bo'lgan. Turizmning ilk infratuzilmalari paydo bo'la boshlagan.

O'rta Yer dengizi mamlakatlaridan biri hisoblangan Qadimgi Rim aholisiga boshqa xalqlar singari sayohatlarga chiqish xos bo'lgan. Rim zodagonlari ko'proq Yunonistonga borishni xush ko'rishardi. Chunki o'sha davrda Yunoniston sport, san'at va savdo markazi sifatida tanilib ulgurgan edi. Shuningdek, yunon faylasuflari o'z davrining yetuk namoyondalari bo'lishgan. Shu sababli ham Yunoniston qo'shnilarini o'z bag'riga chorlab turar edi. Bundan tashqari ko'ngilochar sayohatlar ham an'anaga aylanib qolishgan. Rim zodagonlari Olimpiya o'yinlariga, Yunonistondagi issiq buloqlarga dam olish uchun tashrif buyirishgan. Yunonistoda issiq buloqlarning sayohatchilarga xizmat ko'rsatishi rekreatsiyaning dastlabki ko'rinishi deb hisoblashimiz mumkin. Miloddan avvalgi I asrdayoq Rim imperiyasida ko'p qavatli mehmonxonalar mavjud bo'lgan.

VII-XI asrlarda arab sayyohlarining sayohatlari muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu davrdan diniy ziyorat turizmi ommalasha boshlagan. Ayniqsa musulmon davlatlarida.

O'rta asrlarda sayohatlarning bosh omili sifatida yangi yerlarni kashf qilishga bo'lgan intilish deb qaraladi. Yevropa davlatlari orasida yangi yerlarga, yangi boyliklarga ega chiqishga bo'lgan intilish avj oldi. Natijada yangidan yangi sayohatlar tashkil etilgan

Uyg'onish davri va dunyoviy bilimlarning rivojlanishi diniy sayohatlarni zaiflashtirdi. Bu davrda sayohatlar yo'nalishi London, Parij, Milan, Florensiya, Rim, Shveysariya, Germaniya, Gollandiya orqali o'tdi. Sayohatlardan asosiy maqsad ta'lim olish edi.

Sayohatlarning turli maqsadlariga qaramay, ularning barchasi insonning geografik va ilmiy bilimlarini kengaytiradi.

Turizmning vujudga kelishi va rivojlanishining keyingi bosqichi - bu zamonaviy turizm va ommaviy turizmning vujudga kelishi. Temir yo‘llar qurilib, avtomobillar ishlab chiqarilib, samolyotlar ixtiro qilingach sayohatdan turizm tushunchasi ajralib chiqa boshlagan. Turizmning rivojlanishida transport inqilobi muhim rol o‘ynaydi; paraxodning ixtiro qilinishi; bug‘ lokomotivini yaratilishi; xavsizlik masalalarining takomillashtirilishi; Yevropadagi yo‘l tarmog‘ining paydo bo‘lishi. Bu o‘zgarishlar turizmda ishonchlilikni, harakat tezligini oshirdi, shu bilan birga xarajatlarni kamaytirdi. Eski Dunyodan Amerikaga katta miqdordagi muhojirlar oqimi tufayli dengiz transporti ham jadal rivojlanishni boshladi. XIX asr o‘rtalarida yirik yuk tashish kompaniyalari paydo bo‘ldi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot va ishchilarning ijtimoiy kurashi, shuningdek, jamiyat farovonligining oshishi ish vaqtining asta-sekinlik bilan qisqarishiga olib keldi. Dastlab kafolatlanmagan, to‘lanmagan va keyinchalik to‘lanadigan ta‘tillar paydo bo‘ldi.

Transportning sifati va ishonchlilikni oshirish, ularning narxini pasaytirish bilan birga ish vaqtini bosqichma-bosqich qisqartirish sayohatchilar oqimining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Shu sababli, vaqtincha tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalar paydo bo‘la boshladi.

Ushbu davrda zamonaviy turizmga asos solindi. Zamonaviy turizm asoschisi sifatida angilyalik pastor Tomas Kuk tan olinadi. U birinchilardan bo‘lib sayohatchilarning ommaviy safarga chiqishlarining mohiyatini va foydaliligini anglab yetdi. 1840-yilda u yashab turgan hududdan temir yo‘l tarmog‘i o‘tkazildi va u sheriklarini Loughborga olib borish uchun poyezd yollashga qaror qildi. Bu ishda temir yo‘l jamiyatining kotibi ham yordam berdi. Tomas Kuk yaqinlashib kelayotgan sayohatga puxta tayyorgarlik ko‘rdi. U madaniy dastur tuzdi, chiptalar, plakatlar chop ettirdi va tarqatdi. Nihoyat **1841-yil 5-iyulda** 570 kishi Loughboroga jo‘nab ketdi. Aynan shu kun turizmning tug‘ilgan kuni hisoblanadi. 1851-yilda T.Kuk mamlakatning barcha burchagidan kelgan inglizlarning Parijdagi ko‘rgazmada ishtirok etishini tashkillashtirdi.

Yevropa aholisi o‘rtasida “Yangi dunyo” Amerikaga bo‘lgan intilish juda kuchli edi. Natijada Yevropa va Amerika qit‘alari o‘rtasida muntazam kema qatnovi yo‘lga qo‘yilgan edi, 1866-yilga kelib T.Kuk bundan unumli foydalandi. U ushbu yilda turistlarning dastlabki ikki guruhini AQShga jo‘natdi. Ushbu tur uzoq muddatli bo‘lib, 5 oy davom etdi. Turistlar orasida taniqli yozuvchi Mark Tven ham bor edi. Tomas Kuk turizm sohasiga juda ko‘p yangiliklar kiritgan. Shulardan biri sayohat qo‘llanmalarini nashr etganidir. Qo‘llanmada diqqatga sazovor joylar haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan va ma‘lum bir mamlakatda o‘zini qanday tutish to‘g‘rida tavsiyalar berilgan. Bundan tashqari Tomas Kuk “Ekskursionist” nomli jurnalni nashr etdi. U Ikkinchi Jahon urushiga qadar chop etilgan. “Ekskursionist” bu sohadagi birinchi jurnal edi.

Tomas Kukning turizmni rivojlantirishdagi roli shu bilan tugamaydi. 1878-yilda Hindiston general-gubernatori Kukga taklif bilan murojat qiladi. Undan musulmonlar uchun turizmning yangi yo‘nalishi – Makka ziyoratini ochishini so‘raydi. Safar muvoffaqiyatli o‘tadi. Shundan so‘ng Kukning Londondagi shtab-kvartirasida ziyoratchilar uchun yangi filial ochildi.

Zamonaviy turizm asoschisi 1892-yilda vafot etdi, uning ishini o‘g‘illari va sheriklari davom ettirdi. Bugungi kunda Tomas Kuk kompaniyasi butun dunyoda 12000 dan ortiq turistik agentliklarga ega bo‘lib, yiliga 20 milliondan ortiq turistga xizmat ko‘rsatadi. Kukning vafotidan so‘ng kompaniya boshqaruvi o‘g‘liga, uning vafotidan so‘ng esa nabiralarning qo‘liga o‘tdi. Tomasning avlodlari kompaniyani 1920-yilga qadar boshqargan. So‘ngra kompaniya boshqaruvi tadbirkorlar uyushmasiga o‘tdi va bu kompaniya hozirda ham o‘z faoliyatini davom ettirib

kelmoqda. U asos solgan turoperator bugungi kunda Buyuk Britaniyadagi eng yirik, Yevropada ikkinchi, dunyoda uchinchi o‘rinni egallaydi. Unda 16 mingdan ortiq xodim ishlaydi.

Qizig‘i shundaki, T.Kuk tijorat maqsadlariga emas, balki ijtimoiy maqsadlarga intilgan. Tomas Kuk turizm faoliyatlariga quyidagi yangiliklarni olib keldi:

transport, mehmonxona va boshqa xarajatlarni o‘z ichiga olgan holda ommaviy sayohat qilish;

kreditga sayohat qilish;

yoshlar uchun ma‘rifiy sayohatlar;

ishchilar uchun maxsus sayohatlar uyushtirish;

dengiz orti mamlakatlariga sayohatlar;

valyuta almashtirish operatsiyalari.

Ushbu davrga kelib turizm tushunchasi sayohat tushunchasidan ajralib chiqa boshladi. Sayohat tushunchasi, odamlarning maqsadlaridan qat‘iy nazar zamon va makonda ko‘chib yurishni anglatadi hamda sayohatchilarning turmush tarzi bo‘lib xizmat qiladi.

Sayohatlar va turizmning bir-biridan farqlarini ko‘rib chiqishda ushbu faoliyatning maqsadlari va moddiy ta‘minotiga to‘xtalib o‘tish joiz. Sayohat va ekspeditsiyalarning aksar qismi ma‘lum bir maqsadlar (savdo, fan, yangi yerlarni ochish, mahsulot reklamasi va hokazo)ga xizmat qilib, manfaatdor shaxslar, tashkilotlar, davlat va xususiy jamg‘armalar tomonidan moliyalashtiriladi. Sayohatchining shaxsiy xislatlari katta rol o‘ynasada, biroq uning muvaffaqiyatga erishishi ko‘p jihatdan jamiyatni sayohatni uyushtirish va amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moddiy resurslarni ajratishga ko‘ndira olish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Sayohat - umumiy tushuncha ma‘nosiga ega atama bo‘lib, odamlarning maqsadlaridan qat‘iy nazar, zamon va makonda ko‘chib yurishini anglatadi. Sayohatlar ayrim shaxslar tomonidan alohida, yagona maqsad va qiziqishga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan ekspeditsiyalar, jumladan, harbiy ekspeditsiyalar tuzgan holda amalga oshirilib, ular tarkibida yuzlab va hatto minglab mutaxassislar, diplomatlar, migrantlar va ko‘chib keluvchilar bo‘lishi mumkin. Dengiz, havo va boshqa transport vositalari ekipajlari yillab o‘z uylarida bo‘lmaydilar. Shu tariqa, sayohat turmush tarzi, ish, dam olish bo‘lishi mumkin.

Turizm - sayohatlarning bir turi bo‘lsada, biroq o‘ziga xos jihatlarga, ma‘lum bir tavsifga ega bo‘lib, unda ishtirok etuvchi shaxs turist deb nomlanadi.

Turizmning paydo bo‘lishi va shakllanishining keyingi bosqichida –turizmning tabiati o‘zgara boshladi. Endi nafaqat ko‘ngil ochar turizm, balki marshrutlar yo‘nalishi ko‘proq tarixiy va madaniy yodgorliklarni o‘z ichiga ola boshladi.

Ushbu bosqichda individual turizmdan jamoaviy turizmga o‘tish jarayoni kuzatilgan. Bu bosqich ikki jahon urushlari orasidagi davrni o‘z ichiga oladi.

Ommaviy turizmning paydo bo‘lishi Germaniyada jadal tarzda kechgan. Germaniyada ommaviy turizmning rivojlanishiga Gitler turtki bo‘lgan. "Millat birligi" g‘oyasini amalga oshirib, mamlakat rahbariyati hordiq chiqarish maqsadida ommaviy uyushgan turizmni rag‘batlantirdi. 1933-yilda

turizmni nazorat qiluvchi tashkilot tashkil etildi. Bu sohadagi umumiy mafkuraviy yo‘nalishni shaxsan A.Gitler ishlab chiqqan. Adolf Gitler kishilar bo‘sh vaqtda dam olishi, yaxshi dam olgan shaxslar kuchli asablarga ega bo‘lishini va shunday odamlar bilan katta siyosatlarni amalga oshira olishi mazmunidagi fikrlarini olg‘a surgan. Tarix allaqachon Gitlarning "katta siyosati" bo‘yicha salbiy hukm chiqargan va ushbu vaziyatda bizni faqatgina fashistlarning ishchilarning ommaviy dam olishlarini tashkil etishga katta e‘tibor bergani va shu bilan aholining yangi qatlamlarini sayyohlikka jalb qilgani qiziqtiradi. Ushbu davrda Jahon sayyohlik tashkilotining (UNWTO) ilk poydevorlari qo‘yildi. 1925-yil Gaagada Xalqaro Rasmiy Turizm Assotsiatsiyalari Kongressi (ICOTT) bo‘lib o‘tdi. U 1927-yilda Rasmiy Turizm Tashkilotlarining Xalqaro Kongressi, 1930-yilda Turizm Tashkilotlari va Targ‘ibotining Xalqaro Ittifoqi deb nomlangan.

Turizmning rivojlanishining keyingi bosqichi o‘z ichiga ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarni oladi. Aynan shu davrda turizm haqiqatdan ham xalqaro darajaga yetdi. Yuqori darajada rivojlangan sanoat mamlakatlarida turizmga bo‘lgan ehtiyoj ortib bordi va turizm iqtisodiyotning yaxshigina ulushini egallay boshladi. Ushbu davrda sayyohlik kompaniyalari faol ravishda rivojlana boshladi. Aynan shu bosqichdan boshlab turizmning katta bir tarmog‘i hisoblangan rekreatsiya sohasi ham alohida ko‘zga tashlana boshladi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng, turizm bozorida talab va taklifda tub o‘zgarishlar yuz berdi. Ommaviy konveyer turizmidan ommaviy tabaqalashtirilgan turizmga o‘tildi. Endi turizm aholining har bir qatlamiga xizmat ko‘rsata boshladi. Aholining kam daromatli qatlami ham turizm xizmatlaridan foydalana boshladi. Buni deferensial turizm deb ham atashimiz mumkin. Deferensial turizm turistlarning turli xil ehtiyojlari, taklif etilayotgan xizmatlarning xilma-xilligi va turistik taklifning aniq bir ixtisoslashuvi bilan ajralib turar edi. 50-yillar Yevropa turizmni birinchi navbatda amerikalik sayyohlarni qabul qilishga qaratilgan edi. Chunki jahon bozorida dollarning ahamiyati katta va kelayotgan har bir turist o‘zi bilan qimmatli dollorlarni olib kelar edi. 60-yillarda 70-yillarning o‘rtalariga qadar turizmning tez suratlarda o‘sishi kuzatildi.

1970-yilda IUOTO bosh assambleyasi Jahon sayyohlik tashkilotini (JST) tashkil etishga ovoz berdi. Bu tashkilot 1974-yil 1-noyabrdan ish boshladi. Tashkilotning shtab kvartirasi Ispaniya poytaxti Madrid shahrida joylashgan. 27-sentyabr-butunjahon turizm kuni sifatida belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2006-2008-й.
2. Abduvohidov A. Xalqaro turistik tashkilotlar. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2012.
3. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2014.